

OMMAVIY TADBIRLARNING TUSHUNCHASI VA TURLARI.

Xojibekov Ziyomiddin Nasriddinovich

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti
Maxsus fanlar sikli katta o‘qituvchisi, podpolkovnik*

Annotatsiya: Ushbu maqolada so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta‘minlash, ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar keng yoritiladi. Maqolada ommaviy tadbirlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘naviy, sport, diniy va kasb bayramlari kabi shakllari alohida ko‘rib chiqilib, ularning jamoat tartibi va xavfsizligiga ta‘siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Jamoat xavfsizligi, ommaviy tadbirlar, jamoat tartibi, Ichki ishlar vazirligi, Jamoat xavfsizligi departamenti, E-jamoat xavfsizligi tizimi, ruxsat etilgan tadbirlar, ruxsat etilmagan tadbirlar, ijtimoiy-siyosiy tadbirlar, diniy marosimlar, xavfsizlik choralari, tartibbuzarliklarning oldini olish, normativ-huquqiy hujjatlar, ommaviy tadbirlarni tashkil etish, fuqarolarning konstitusion huquqlari.

Abstract: This article provides a comprehensive overview of the reforms implemented in the Republic of Uzbekistan in recent years to ensure public safety, improve the processes of organizing and holding public events. The article separately considers such forms of public events as socio-political, cultural-spiritual, sports, religious and professional holidays, and analyzes their impact on public order and safety.

Keywords: Public safety, public events, public order, Ministry of Internal Affairs, Department of Public Safety, E-public safety system, permitted events, unauthorized events, socio-political events, religious ceremonies, security measures, prevention of violations, regulatory legal acts, organization of public events, constitutional rights of citizens.

Keyingi yillarda jamoat xavfsizligini ta‘minlash yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi[1].

Ichki ishlar vazirligi markaziy apparati yanada optimallashtirilib, uning negizida Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etilgani, tizimning eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha jamoat xavfsizligini ta‘minlash faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish imkonini bermoqda.

Jamoat xavfsizligini ta‘minlashning mutlaqo yangi tizim sifatida sodir etilgan jinoyat va

huquqbuzarliklarning asl omillarini “ilmiy diagnoz” asosida aniqlash va “ilmiy diagnoz xulosasi” bilan “E-jamoat xavfsizligi” axborot tizimi orqali hamda sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarning asl omillarini bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarni ilmiy baholash asosida tahlil qilish va “ilmiy baholash xulosasi”ni rasmiylashtirish tartiblari joriy etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish, ularni o'tkazishda fuqarolar xavfsizligini va jamoat tartibini saqlashni kuchaytirish maqsadida, bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilishini nazorat qilish, vazirlik va idoralarning bu boradagi faoliyatiga tashkiliy-uslubiy rahbarlik qilish hamda muvofiqlashtirish; ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ommaviy va boshqa tadbirlarni o'tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta'minlashning yuqori mobilligi va samaradorligini oshirishga imkon beradigan yangi ish usullarini joriy etish; ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlarda yong'in xavfsizligiga, tez tibbiy yordam ko'rsatishga, evakuatsiyaga va himoyalash bo'yicha muhandislik-texnik vositalar bilan jihozlashga qo'yiladigan yagona talablar hamda ularga rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlash tartibini belgilash; ommaviy tadbirlarni o'tkazishga jalb qilinadigan vazirlik va idoralar kuch va vositalarining birgalikdagi harakatlanish algoritmini ishlab chiqish va uni doimiy takomillashtirib borish; ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini tartibga soluvchi qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish kabilar shular jumlasidandir.

Hozirgi vaqtda turli xil ommaviy tadbirlar aholining ijtimoiy faolligi va bo'sh vaqtini o'tkazishining keng yoyilgan shakllaridan biri hisoblanadi hamda shaxsning siyosiy hayot, sport, madaniyat, san'at yutuqlaridan bevosita bahramand bo'lish ehtiyojini qondiradi. Demokratiya sharoitida fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari ko'p jihatdan davlat organlari, siyosiy partiyalar va harakatlar, shuningdek, turli xil jamoat uyushmalari, sport, madaniyat, diniy va boshqa tashkilotlar o'tkazadigan turli xil ommaviy tadbirlarda faol ishtirok etishlari bilan bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 33-moddasiga ko'ra, fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini mamlakat qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

Respublikamizning viloyat va shahar markazlari, katta shaharlarida, mahallalar, ko'chalar, maydonlar va boshqa jamoat joylarida o'tkaziladigan biron bir ommaviy tadbirlarni jamoat xavfsizlikni ta'minlash faoliyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va

o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2014 yil 29 iyul) qarori respublikasi hududida ommaviy tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazish tartibini belgilaydi hamda ular ishtirokchilari, ommaviy tadbirlarni o‘tkazish obyektlari ma‘muriyatlarining, ichki ishlar organlari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalari, shuningdek, davlat boshqa organlarining ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta‘minlash bo‘yicha o‘zaro munosabatlari, majburiyatlari va huquqlarini tartibga soladi.

Shu o‘rinda, aytish kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2014 yil 29 iyul) 205-son qarori bilan tasdiqlangan “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalari”ning amal qilishi yig‘ilishlar, namoyishlar, ko‘cha yurishlari va namoyishlarini, shuningdek to‘y, oilaviy, yubiley, vafot etganlar xotirasiga bag‘ishlangan oilaviy aza marosimlari va tadbirlarni o‘tkazishga tatbiq etilmaydi.

Ommaviy tadbirlarning turlari va ularni o‘tkazish tartibiga to‘xtalishdan oldin uning lug‘aviy ma‘nosiga e‘tibor qaratsak. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “ommaviy” so‘zining mohiyatiga nisbatan “ommaga, ko‘pchilikka oid, ko‘pchilik tomonidan yoki omma orasida bajariladigan ommaviy ish, ommaviy harakatlar” deb izoh berilgan.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi IIVning “Ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish davomida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta‘minlashni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi (2019 yil 31 oktabr) 351-son buyrug‘ida “Ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish davomida jamoat tartibini saklash va xavfsizlikni ta‘minlashni tashkil etish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma” tasdiqlangan.

Ushbu yo‘riqnoma ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish davomida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta‘minlashni tashkil etish tartibini belgilaydi.

Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat xavfsizligini ta‘minlash faoliyati bilan bog‘liq quyidagi tushunchalarga ta‘riflar keltirilgan:

ommaviy tadbir – 100 va undan ko‘p kishilarning ishtirokida ijtimoiy-siyosiy (anjumanlar, konferensiyalar, syezdlar va boshqalar), madaniy-ommaviy va ko‘ngilochar-tomosha dasturlari (musiqiy, adabiy va boshqa festivallar, konsert, teatr, sport, reklama tadbirlari, xalq sayillari, sirk, milliy namoyishlar va o‘yinlar, ko‘rik-tanlovlar va boshqalar), shuningdek umumxalq, diniy, kasb bayramlarini o‘tkazish maqsadida ommaviy tadbirni o‘tkazish obyektida tashkil qilinadigan fuqarolarning birgalikda qatnashishlariga aytiladi.

Ommaviy tadbirlar birinchi va ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o‘tkazish obyektlari ro‘yxatiga kiritilgan obyektlarda o‘tkazilishi mumkin.

Birinchi toifadagi ommaviy tadbir – 200 va undan ko‘p kishilar ishtirokida Toshkent,

Nukus shaharlari va viloyat markazlari hududida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar.

Ushbu toifadagi ommaviy tadbirlarni o'tkazish obyektlarining ro'yxati Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining takliflari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ikkinchi toifadagi ommaviy tadbir – birinchi toifaga kirmaydigan ommaviy tadbir.

Ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o'tkazish obyektlarining ro'yxatlari tumanlar (shaharlar) hokimliklarining takliflari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlanadi.

Ayrim ommaviy tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining qarorlari asosida, birinchi va ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o'tkazish obyektlarining ro'yxatlariga kiritilmagan joylarda o'tkazilishi mumkin.

Ommaviy tadbirni o'tkazish obyekti – ommaviy tadbirlarni o'tkazish uchun maxsus mo'ljallangan yoki moslashtirilgan, yong'inga qarshi xavfsizlik, tez tibbiy yordam ko'rsatish, evakuatsiya qilish, kommunikatsiya, muhandis-texnik himoya vositalari va ommaviy tadbir ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashning boshqa vositalari va tizimlari bilan jihozlangan, birinchi va ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o'tkazish obyektlari ro'yxatlariga kiritilgan ochiq joy uchastkalari, binolar, inshootlar va boshqa joylar (madaniyat-ma'rifat muassasalari, sport majmualari va boshqalar);

ommaviy tadbirni o'tkazish obyekti ma'muriyati – tasarrufida, foydalanishida, ixtiyorida ommaviy tadbirni o'tkazish obyekti joylashgan davlat organi, yuridik yoki jismoniy shaxs;

ommaviy tadbir tashkilotchisi – ommaviy tadbirni tashkil qilish va o'tkazish majburiyatini o'z zimmasiga olgan davlat organi, yuridik shaxs va 18 yoshga yetgan jismoniy shaxs;

ommaviy tadbir dasturi – ommaviy tadbirni o'tkazish maqsadlari, obyekti, sanasi va aniq vaqtini, har bir bosqichini o'tkazish uchun javobgar bo'lgan shaxslarni ko'rsatgan holda uning asosiy bosqichlarining vaqt bo'yicha jadvalini (bosqichma-bosqich rejasini), foydalaniladigan texnik va muhandis-texnik vositalar (sahna maydonchasi, ovoz kuchaytirish, elektr ta'minoti manbai, chiroq va pirotexnika bilan bezatilishi, tibbiy xizmat ko'rsatish, ommaviy tadbir o'tkazilgandan keyin hududning yig'ishtirilishi)ni belgilab beruvchi, ommaviy tadbirni o'tkazish obyekti ma'muriyati bilan kelishuv bo'yicha ommaviy tadbir tashkilotchisi tomonidan tasdiqlangan hujjat;

ommaviy tadbirni o'tkazish uchun ruxsatnoma – ommaviy tadbirni o'tkazish huquqini beradigan, vakolatli organ tomonidan qabul qilinadigan va ommaviy tadbir tashkilotchisiga beriladigan qaror;

ommaviy tadbirni o‘tkazish obyektiga tutash hududlar – chegaralari mahalliy hokimiyat organlarining qarorlari bilan belgilanadigan joy uchastkalari;

vakolatli organ – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

ommaviy tadbir ishtirokchilari – ommaviy tadbir dasturida ko‘zda tutilgan ommaviy tadbirlarni amalga oshiruvchi tashkilotchilar, artistlar, sportchilar va boshqa shaxslar, shuningdek tomoshabinlar[2].

Ommaviy tadbirlarning ikki turi mavjud bo‘lib ular quyidagilardan iborat:

ruxsat etilgan ommaviy tadbirlar – ko‘ngilochar, teatr-tomosha, konsert, sport, reklama dasturlari va boshqa dam olish dasturlari, umumxalq, diniy, kasb bayramlari hamda miting, yig‘ilish, namoyishlarni o‘tkazish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ochiq va yopiq inshootlarda, maydonlarda, binolarda va boshqa joylarda tegishli organ hamda idoralardan ruxsat olgan holda tashkil etiladigan tadbirlar;

ruxsat etilmagan ommaviy tadbirlar – tegishli davlat organlaridan ruxsat olmasdan tashkil qilinadigan miting, yig‘ilish, namoyish va ko‘cha yurishlari nazarda tutiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarda ommaviy tadbirlarni o‘tkazish fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini ifoda etgani bois, tegishli davlat hokimiyati organlari tomonidan ruxsat etilgan taqdiridagina amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

Ruxsat etilmagan ommaviy tadbirlarni o‘tkazish yoki rejalashtirish qonunchilikda nazarda tutilgan muayyan javobgarlikni yuzaga keltiradi. Ommaviy tadbirlarning eng muhim huquqiy sharti – ularning o‘tkazilishiga davlat hokimiyat organlaridan tegishli tartibda ruxsatnomaning olinishidir. Shu bois, yuridik adabiyotlarda ruxsat etilgan va ruxsat etilmagan ommaviy tadbirlar deb, tasniflangan.

Hududiy belgilariga qarab ommaviy tadbirlar: tuman, shahar miqyosida; viloyat miqyosida; respublika miqyosida; xalqaro miqyosidagi turlarga bo‘linadi.

Ommaviy tadbirlar mazmuni va yo‘nalishiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

ijtimoiy-siyosiy;

madaniy-ma‘naviy va ko‘ngilochar-tomosha dasturlari;

sport-tomosha;

diniy marosimlar;

kasb bayramlari bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy tadbirlarga namoyishlar, mitinglar, yurishlar, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining qurultoylari (syezdlari) turli darajalardagi deputatlar, Respublika Prezidentining saylanishi kabilar kiradi. Ommaviy tadbirlarning ushbu turlariga, odatda, tashkil etilishining yuksak darajaga egaligi, ishtirokchilar tarkibining sifat jihatdan yaqinligi, zarur moliyaviy-texnikaviy va reklamaviy qo‘llab-quvvatlash kabilar xosdir. Turli partiyalar, harakatlarni qo‘llab-quvvatlovchi hamda bunday tadbirlarda ishtirok etuvchi

fuqarolarga qo'yilgan maqsadlarga erishishdan umumiy manfaatdorlik, shuningdek, xatti-harakat motivlari va stereotiplarining nisbatan o'xshashligi xosdir. Bunday tadbirlarda turli davlat organlari va jamoat tashkilotlarining vakillari ishtirok etadilar, ularning birgalikdagi faoliyati barqaror jamoaviy manfaatlar va shaxslararo o'zaro aloqalar bilan bog'liqdir. Ular, odatda, amaldagi qonunlar va belgilangan jamoat joylarida o'zini tutish qoidalariga to'g'ri munosabatda bo'ladilar, holbuki ba'zan istisnolar ham uchraydi.

Respublikamiz poytaxti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyat markazlarida mazkur ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan joylar mavjud bo'lib, u yerlarda turli siyosiy partiyalar, oqimlar va jamoat tashkilotlarining vakillari yig'ilishlari mumkin.

Ommaviy tadbirlarning yana bir keng tarqalgan turi madaniy-ma'naviy va ko'ngilochar-tomosha dasturlari bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: musiqiy, adabiy va boshqa festivallar, konsert, teatr, sport, reklama tadbirlari, xalq sayillari, sirk, milliy namoyishlar va o'yinlar, ko'rik-tanlovlar va boshqalar. Jamoat tartibini saqlash nuqtai nazaridan, ushbu tadbirlarda odamlar har xil ko'rinishlarda tutishlari o'ziga xos bo'ladi. Ular o'zlarining madaniy, hissiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga intiluvchi fuqarolarning ixtiyoriy birlashishlari sharoitida yuzaga keladi. Biroq, ishtirokchilar tarkibi har xil, ma'lumoti, yoshi turlichaligi, qiziqishlari va intilishlarining xilma-xilligiga qaramay, bunday tadbirlarga boruvchi shaxslarning xatti-harakatlari umum e'tirof etilgan normalarga mos keladi.

Bu esa, o'smirlarning, ya'ni rok musiqa ixlosmandlarining mamlakatimiz va xorijiy estrada yulduzlari ishtirokida katta konsert zallari hamda sport va tomosha inshootlarida o'tkaziladigan konsertlarda o'zlarini tutishlarida yorqin namoyon bo'ladi. Rok ixlosmandlarining ushbu jamoat joylarida sodir etadigan huquqbuzarliklari ko'pincha guruhli xususiyatga ega bo'ladi va jamoat tartibi holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sport-tomosha tadbirlari an'anaga ko'ra, respublikamizda aholi ommaviy dam olishning keng yoyilgan shakllaridan biri hisoblanadi. Ular miqyosi va muhimlik darajasiga ko'ra, xalqaro, respublika, viloyat, shahar va tuman miqyosidagi tadbirlarga bo'linadi. Odamlarning ommaviy to'planishi hamda jamoat tartibining holatiga ko'rsatadigan ta'sir darajasi bo'yicha qo'riqlash uchun eng murakkab va qiyini – futbol, kurash, katta tennis kabi sport o'yinlarining o'tkazilishidir. Ushbu ommaviy tadbirlarning o'ziga xos jihati, futbol matchlarida muayyan toifadagi sport ishqibozlari, turli sport klublariga mansub ashaddiy muxlislarning bo'lishidir. Odatda, ularning xatti-harakatlarida o'z komandasiga nisbatan kuchli munosabat mavjud bo'ladi. Afsuski, sport matchlari o'tkazilishi davomida ayrim qarama-qarshi tomon muxlislari guruhlari jiddiy huquqbuzarliklar sodir etadilar, "to'qnashuvli vaziyatlar"ni yuzaga keltiradilar, sport inshootlariga keluvchilarning xatti-harakat qoidalarini buzadilar. Ba'zan bu holatlar og'ir oqibatlariga olib keladi.

Sport tadbirlari o'tkazilishi vaqtida jamoat tartibini buzish hollari ham yetarli darajada

uchraydi. Shu bois, turli xil tomoshabop ommaviy tadbirlar tashkilotchilari ichki ishlar organlari bilan birgalikda muxlislarning belgilangan xatti-harakat qoidalariga rioya etishlarini nazorat qilish maqsadida, ushbu tadbirlar o‘tkaziladigan vaqtda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash choralarini kuchaytirishlari shart.

Ommaviy diniy tadbirlar, jumladan, respublikamizdagi har xil diniy bayramlar, odatda, tegishli masjidlarda dindorlar va oddiy qiziquvchilar ko‘plab to‘planadigan sharoitda o‘tkaziladi. Hozirgi vaqtda davlat siyosatining dinga munosabati o‘zgargani sababli yangi masjidlar qurilmoqda, eskilari tiklanmoqda, ibodat uchun maqbul sharoitlar yaratilmoqda. Ular orasida faoliyati g‘ayriijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan va atrofdagilar uchun xavf tug‘diradigan oqimlar bo‘lganligini ham esdan chiqarmaslik kerak.

Bunday holatlar ko‘pincha tadbirlar o‘tkaziladigan joylarda jamoat xavfsizligi faoliyatiga ta’sir etadi va operativ vaziyatni chigallashtiradi. Bu esa, o‘z navbatida, ichki ishlar organlaridan jamoat tartibi va xavfsizligini lozim darajada saqlash uchun maxsus choralar ko‘rish, o‘ziga xos sharoitlarda tez va samarali harakat qilish, yuzaga keladigan tartibbuzarliklarni bartaraf etish uchun maxsus choralar ko‘rishni talab qiladi.

Boshqacha aytganda, ommaviy tadbir risoladagidek o‘tganida jamoat tartibi ular o‘tkaziladigan joylarda yuzaga keladigan muayyan ijtimoiy munosabatlarning majmui sifatida tavsiflanadi. Ushbu ijtimoiy munosabatlarning qaror topishi va rivojlanishi, bir tomondan, fuqarolarga o‘zlarining konstitusiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari, boshqa tomondan davlat, guruhlar va shaxsiy manfaatlarining xavfsizlik talablariga rioya etgan, shaxs sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilingan holda uyg‘unlashishi uchun tashqi sharoitni ta’minlash imkonini beradi.

Kasb bayramlari, vatan himoyachilari, o‘qituvchi va murabbiylar, shifokorlar, ichki ishlar organlari xodimlari kunlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Turli xil ommaviy tadbirlar o‘tkazish davomida ularning ishtirokchilari, tomoshabinlar va jamoat tartibini saqlash subyektlari o‘rtasida o‘ziga xos ijtimoiy munosabatlar shakllanadi. Bu munosabatlar huquqiy normalar bilan tartibga solinib, oddiy sharoitlarda ushbu tadbirlar o‘tkaziladigan joylarda jamoat tartibining mazmunini tashkil qiladi. Ommaviy tadbirni o‘tkazishning normal tartibi qandaydir favqulodda holat yoki hodisa yuz berishi tufayli buzilgan hollarda, jamoat xavfsizligini ta’minlash, barqarorlashtirish vakolatli organlarining bevosita asosiy vazifasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021-yil

29-noyabr) PF-27-son farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 205-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son.

3. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-sentyabrdagi “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olishga doir chora-tadbirlarni kuchaytirish to‘g‘risida”gi 569-son qarori/

4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.09.2016 yildagi O‘RQ-407-son “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni.

5. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/09/16/mass-events/>